



## XORIJIY TILLARNI O‘QITISH VA O‘RGANISHDA IJTIMOIIY TARMOQLARNING ROLI

---

*Gulrux Xasanova*

*Samarqand davlat chet tillari instituti dotsenti v.b., PhD*

*Ro‘za Sharipova*

*Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Hammamizga ma’lumki, XXI asr texnika va texnologiya asri. Shu sababli ham, butun dunyoga keng tarqalgan Telegram, Whatsapp, Instagram va shu kabi bir qancha ilovalar orqali tashkil qilingan guruhlarda, kanallarda va shuningdek ovozli chat va videochatlarda olib boriladigan onlayn darslar orqali til o‘rganuvchilar soni ortmoqda. Bu maqolada ijtimoiy tarmoqlar orqali til o‘rganishning qanchalik foydali va zararli ekanligi xususida atroflicha fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** xorijiy til, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn dars, kanal va guruhlar, ovozli chat, video chat.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim, - dedi Shavkat Mirziyoyev [3].

Mamlakatlarni jamiyki insonlarni ilm yuksaltiradi, bu dunyoda va oxiratda insonlarning darajasini belgilab beradi [1;201]. Yurtimizda xorijiy tillarni xususan ingliz tilini o‘qitish va o‘rganishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va ushbu sohani keng rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg‘ayib kelayotgan har bir yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish davlatimizning oliy maqsadlaridan biridir. Shuningdek, xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitish jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta’minot loyihalaridan keng foydalanish dars samaradorligini oshiribgina qolmasdan, ularning xotirasida tez va uzoq muddatga saqlanishini ta’minlaydi. Til o‘rgatish va o‘rganish davomida sifatli videorolik, o‘yin, ko‘ngilochar ko‘rsatuv, filmlar va boshqa o‘rgatuvchi kontentlardan foydalanish til o‘rganuvchilarda darsga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Hozirgi kunda ko‘plab odamlar til o‘rganishning onlayn shaklini afzal ko‘rishmoqda.



Bu orqali ular uydan chiqmagan holda vaqti va mablag'ini tejab til o'rganishni davom ettirishadi. Misol tariqasida shuni aytib o'tish kerakki, Ibrat farzandlari loyihasining tashkil etilishi yurtimiz yoshlari uchun katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Loyihaning ilk darsi 2022-yil noyabr oyida Youtube platformasiga joylangan. Bugungi kunda mazkur platformada 20 dan ortiq xorijiy tillardan 2100 ta dars o'rin olgan. Foydalanuvchilar 511 mingni, ko'rishlar soni 26 millionni tashkil etadi. "Ibrat Academy" ilovasida (1-rasmga qarang) 880 ming o'quvchi barcha tillardan bepul, tizimli va kreativ darslarni o'rganish imkoniga ega [4].



1-rasm

Ijtimoiy tarmoqlardan agar to'g'ri maqsadlarda foydalanilsa, yangi tilni o'rganish uchun teleko'rustuvlar, podkastlar, kitoblar yoki boshqa har qanday ommaviy axborot vositalari kabi qimmatli bo'lishi mumkin. Bir-biriga uzviy bog'langan bu dunyoda ijtimoiy media qimmatli ta'lim resursiga aylanish uchun oddiy aloqa vositasi sifatidagi roolidan oshib ketdi [2]. Ijtimoiy media platformalari keng qo'llanilishi va xilma xil mazmunda ekanligi sababli o'qituvchilar va repetitorlar tomonidan til o'rganish va o'qitish jarayoniga keng tadbiiq qilinmoqda. O'quv markazlari oflayn darslar bilan birgalikda onlayn darslarni ham yo'lga qo'ymoqda. Til o'rganish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning eng katta afzalliklaridan biri bu turli xil ko'rinishdagi kontentlarning ko'pligidir. Foydalanuvchilar o'z qiziqishlarini e'tiborga olgan holda o'ziga ma'qul bo'ladigan kontentlarni baham ko'radigan kanallar, guruhlar va sahifalarni kuzatishi mumkin. Ijtimoiy media platformalarida foydalanuvchilar tomonidan bildirilgan sharhlar, xabarlar va hatto ovozli yoki videochatlar orqali uyushtiriladigan suhbatlarda qatnashish xorijiy tilda og'aki nutq ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirishga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Muhokamalarda faol ishtirok etish orqali tajribali ustozlardan jumlar tuzish, fikrlarni ifodalash va javoblarni tushunishni o'rganadilar. Jumladan, siz Youtube sahifasi orqali videodarslar, videodarsliklar, jonli translatsiyalarni tomosha qilishingiz va Tiktok ilovasi orqali til qobiliyatlaringizni namoyish etadigan



kontentarni joylashingiz hamda boshqa o'quvchilarni ham til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni oshirishga hissa qo'shishigiz mumkin.

Hamma narsaning ham ijobiy ham salbiy tomoni bo'lganidek ijtimoiy tarmoqlarning ham bir qancha zararli taraflari bor. Shuningdek, turli ijtimoiy tarmoq sahifalariga sho'ng'ish orqali til o'rganuvchilarning diqqatlari bo'linadi, asosiy maqsadi esidan chiqadi. Ko'plab ijtimoiy tarmoq sahifalari mavjud, ammo ularning hammasi ham til o'rganish va o'qitish uchun mos emas.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizda tutgan o'rni nihoyatda muhim. Ulardan qanday foydalanish har bir ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining maqsadlariga, afzalliklariga va auditoriyasiga bog'liq, shunga qarab ular o'ziga mos bo'lgan platformalardan foydalanishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xasanova G.X., Abduvaliyeva G. XX asr adabiyotida o'zbek ayolining ta'lim sohasidagi o'rni. Current approaches and new research in modern sciences. International scientific-online conference. Poland – 2024. P.201-202.
2. Khasanova G.Kh. The role of context in the communication. Formation and development of pedagogical creativity. 2023.
3. <https://yuz.uz/uz/news/prezident-xorijiy-tillarni-orgatish-boyicha-kelajak-uchun-mustahkam-poydevor-boladigan-yangi-tizimni-yolga-qoyish-vaqti-soati-keldi>
4. [t.me/ibratfatzandlari](https://t.me/ibratfatzandlari). "Ibrat farzandlari" loyihasi haqida to'liq ma'lumot.